

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### SAYYID POSHSHOXOJANING HAYOT YO'LI VA ADABIY MEROSI

*Nodira Sadullayeva Zaynidin qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik*

*yo'nalishi 1-kurs magistranti*

[nodirasadullayeva471@gmail.com](mailto:nodirasadullayeva471@gmail.com)

*tel: (97) 7232193*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI asr adabiy muhitida muhim ahamiyat kasb etgan yozuvchi, shoir Sayyid Poshshoxoja (Xoja)ning hayot yo'li, Xoja hayoti va asarlarining o'zi yashagan davrdan o'tgan asrgacha qay holda o'rganilganligi haqida fikr-mulohazalarimizni yuritdik. Bundan tashqari, maqolada Xojaning lirik merosi bilan ham qisman tanishamiz.

**Kalit so'zlar:** Xoja, tazkira, devon, shayboniy, hikoyat, obraz, lirika, g'azal, ruboiy.

**Annotation:** In this article we examined the life path of the writer and poet Sayid Poshshakhodzhi (Khoja), who gained significance in the literary environment of the 16th century, and how the life and work of Khoja were studied from the time of his life to his last days. In addition, in the article we will also partially become acquainted with Khoja's lyrical heritage.

**Key words:** Khoja, tazkira, devan, shaybani, story, image, lyrics, ghazal, rubai.

Xoja hayoti va uning adabiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish shoirning tiriklik chog'idayoq boshlangan. Xojaning hayoti va asarlari haqidagi dastlabki, qimmatli ma'lumotlarni XVI asr o'rtalarida yaratilgan Hasan Nisoriyning "Muzakkirul ahbob" asarida uchramiz. Shoirning tarjimaiholini holini tuzishda o'zining "Gulzor" asari va "Muzakkirul abob" tazkirasini ham asosiy manba hisoblanadi.

Tazkiralari O'rta Osiyo adabiyoti tarixini o'rganishda, ayrim yozuvchi va shoirlarning hayot yo'li va asarlari bilan tanishishda asosiy vazifani bajaradi. Jumladan, XVI asr adabiy muhiti haqida boy ma'lumotlarni bera oladigan tazkira bu Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkirul ahbob"idir. Tazkira shayboniy hukmdorlardan Iskandar Bahodirxonga bag'ishlangan. "Muzakkirul ahbob" birikmasidagi harflar abjad usulida hisoblanganda hijriy 974-yil, milodiy 1566-1567-yil kelib chiqadi va asar yozilgan yil aniqlanadi.

Asarning tasnif qismidan so'ng mundarija beriladi: dastlabki ikki bobi temuriylar va shayboniylar xonadoniga mansub sultonlar ahvoli bayoniga bag'ishlanadi. So'ngra to'rt bob berilib, har bob to'rt fasldan iborat qilib tuzilgan. Asar so'ngida xotima qism keladi. Ushbu qism biz uchun ahamiyatli hisoblanib, unda yozuvchi o'z davrida shoir va yozuvchi sifatida tanilgan ota-bobolari, ajdodlari haqida ma'lumot keltiradi. Ushbu tazkiraning qimmatli jihatlaridan yana biri shuki, asar Navoiyning "Majolisun nafois" asari yozilgandan keyin yashab ijod etgan yoki u asarga kirmay qolgan 250dan ortiq shoirlar haqida ma'lumotlarni beradi.

Xotima qismi Abdulvahhobxoja binni Sulaymonxoja bilan boshlanadi. Bu Poshshaxojaning otasidir. Abdulvahhobxoja ota tomonidan Zangiotaga, ona tomondan Anbar onaga ulanadi.

Abdulvahhobxoja ilmi, doim o'qish va izlanishlarda bo'ladigan, bilimli inson edi. Bundan tashqari, Abdulvahhobxoja she'r ilmidan xabardor bo'lgan, forsiy va turkiy tillarda g'azallar bitgan. Tazkirada uning ushbu g'azalidan parcha keltiriladi:

*Ayb etma so 'kub, yafrog 'dek titrasa Orif,  
Kim yor firoqi elidur bodi xazonim<sup>1</sup>.*

Tazkirada Poshshoxojaning akalari Shayx Alixoja, Boboxonxoja (Jiddiy), o'g'illari Abdusalom, Boboxoja, Shohimxojarlar haqida ham to'xtalib o'tgan.

Asar muallifi Poshshaxojaning o'g'li degan xulosa bor. Ushbu xulosaga ikki asosga ko'ra kelinadi:

Birinchidan, Poshshaxoja haqidagi ma'lumotlar xotima qismida, u o'z ota-bobolari haqida ma'lumot keltirgan qismda beradi.

Ikkinchidan, tazkiraning Poshshaxoja haqida boshlanadigan qismiga noma'lum kotib tomonidan "Tuxfatus surur" kitobi muallifining bergan ma'lumotiga ko'ra, mazkur Poshshoxoja mana shu kitob sohibi Xoja Hasan Nisoriyning otasidir" – degan satrlar bitilgan.

Poshshaxoja tarjimayi holi haqida xabar beruvchi "Gulzor"da quyida misralar uchraydi:

*Shuru' etgan ayyom qish edi,  
Ki umrim oltmishga yetmish edi.  
Nabi hijratidin ko'ngil edi resh,  
Bo'lib erdi to'qqiz yuz qirq besh.*

Demak, asar 945-yilda yozilgan, o'sha paytda muallif 60 yoshda bo'lgan bo'lsa, u 885 (1480-1481) – yilda tavallud topgan.

Xoja dastlab sadrlik qilgan. So'ng Balx hokimligi Kistan Qaro (shayboniy Ubaydullaxonning amakisi Jonibek Sultonning o'g'li) qo'liga o'tgach, unga shayxulislomlik vazifasini bergan. Bu haqida Xojaning bir g'azali Nisoriy tazkirasida keltirilgan:

*Garchi avval sadr aylab, bizni badnom ettilar,  
Lutf etib oxir Hirida Shayxulislom ettilar.*

Nisoriyning ta'kidlashicha, Xoja she'r va inshoda komil inson bo'lgan. Shuning uchun u xonlar o'rtasidagi yozishmalarni ham bajarib turgan.

U shohlarni adllikka chaqirish maqsadida yozgan qasidasidan parcha ham Nisoriyning tazkirasida uchraydi.

Xoja hikoyanavis bo'lish bilan birga g'azal, ruboiy, qit'a janrlarida ham ijod etgan. U o'z she'rlarini to'plab turkiy va forsiy tilda devon ham bitgan, ammo devonlari bizgacha saqlanib qolmagan. Faqatgina turkiy va forsiydan bittadan g'azallari Nisoriy tazkirasida saqlanib qolgan.

Nisoriy Xojaning Zahiriddin Muhammad Boburga katta hurmat bilan qaraganini, undan ijodiy maslahatlar so'rab turganini, o'zining bir turkiy g'azalini unga jo'natgani va bu g'azal Boburga yoqqanligi haqidagi ma'lumotlarni ham keltiradi.

*Kunduz avqotim saning hajringda cholon kechadur,  
Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.  
Anbari zulfing hayolidan ko'zimga, ey pari,  
Yili oyu soatu kun – bori yakson kechadur.  
Vax, na xush vaqtu na xush soat, na osmon kechadur,  
Ravshan o'lgay davlati vaslingda hijron oqshomi.*

Bundan tashqari, ushbu tazkirada "Kechadur" g'azalining g'oyasini mantiqan davom ettirgan ruboiysi ham uchraydi:

*Sening hiding mening dimog'imdan ketmadi,  
Sening yuzing hayoli mening ko'zimdanda ketmadi.  
Umr bo'yi sening yuzingni ko'rish orzusida bo'ldim,  
Umrin o'tdi-yu, seni ko'rish orzusi ketmadi.*

<sup>1</sup> O'ZFASHI, Qo'lyozmalar fondi, inv. №4282, 150-bet.

Xojaning “Gulzor” asarida ham ko‘plab she‘riy parchalar uchraydi. Bular ham mustaqil she‘riy asar sifatida adibning lirik merosini anchagina boyitadi.

Ma‘lumki, o‘tgan asrda mumtoz adabiyotimiz namunalarini o‘rganish, nashr etish ishlari amalga oshirilgan, biroq bu jarayonda markscha-lenincha ta‘limot asos qilib olingan. Poshshoxoja asarlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar Abdurauf Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobida keltiriladi. Fitrat “Miftohul adl”ning muallifi noma‘lum va asar XIV asrga tegishli bo‘lsa kerak deydi. Hamda o‘z kitobida ushbu asardan 8ta hikoyat: “Haj qilmoqni istagan shoh”, “Luqmon hakim”, “Mahmud G‘aznaviy va tolibul ilm”, “Mahmud G‘aznaviy va Ayozi Xos”, Iskandar zulqarnayn va Mag‘rib sultoni” kabilarni kiritadi. Fitrat ushbu hikoyalarni O‘zbekiston SSR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 1791 inventar raqamli qo‘lyozma orqali keltiradi.

1941-yilda nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”<sup>2</sup>ning 1-tomida Miftohul adl” haqida kichik ma‘lumot berilgan. Ushbu nashrdagi “Miftohul adl” haqidagi qarashlar Fitrat qarashlari bilan o‘zaro bir xil. 2-tomida bo‘lsa, Poshshoxoja haqida qisqa tarjimayi hol va “Gulzor” asari beriladi. Bundan ko‘rinadiki, “Miftohul adl”ning muallifi, yaratilgan davri no‘malum holda keltirilgan.

“O‘zbek adabiyoti”<sup>3</sup> to‘rt tomliqining III tomida Poshshoxoja hayoti va ijodi haqida to‘xtalib, uning nazm va nasrda birdek ijod etgani, adibning kichik hikoyatlardan iborat “Gulzor” asari borligini va “Miftohul adl” asari aynan uning qalamiga mansubligi haqida aytiladi.

Poshshoxoja va asarlar haqidagi masalalarni yechishda V.Zohidovning ishlari diqqatga sazovordir. U “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlari muallifi bir ekanligini ikkala asar g‘oyaviy hamda stilistik jihatdan o‘xshashi, ko‘p qo‘lyozmalarda ikkala asar birga kelgani va so‘ngida muallif haqida ma‘lumot keltirish orqali o‘z fikrlarini dalillaydi. Bundan tashqari, asar Amir Temur yoki To‘qlug‘ Temurga emas balki XVI asrda yashagan shaxzoda Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur sultonga bag‘ishlanganini aytadi.

Poshshoxojaning “Miftohul adl” va “Gulzor” asarlarining syujeti va kompozitsion tuzilishiga ko‘ra muallif yirik obrazlarni yarata olmagan, biroq juda ko‘p va xilma-xil obrazlar galereyasini tuza olgan deyishimiz mumkin.

Yozuvchi asarda keltirilgan masalani illyustratsiya orqali, ya‘ni hikoyalar misolida amaliy hal etishga harakat qiladi. O‘z fikrlarini aniqlashtirib, isbotlash maqsadida tarixiy voqealarga, shaxslarga murojaat etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xoja o‘z davrining yetuk yozuvchi, shoiri bo‘lishi bilan birgalikda davlat ahamiyatidagi shaxs ham bo‘lgan. Shohga yaqin kishi bo‘lganligi sababli ko‘proq tarbiyaviy-ruhiy mavzularda ijod etgan. Hikoyanavislikni bir pog‘onaga ko‘targan. Biz uning hikoyalaridagi axloqiy, tarbiyaviy masalalarni nafaqat XVI asr uchun balki hozirgi kun uchun ham ijobiy qo‘yilgan va to‘g‘ri hal etilgan deya olamiz. Xojaning bu fikrlari ijtimoiy-siyosiy masalalarga munosabati, chuqur gumanizmi va xalqparvarlik g‘oyalari bilan chirmashib ketadi. To‘g‘rilik va mehr-muhabbat ma‘qullangan, xiyonat va g‘iybat bilan ish tutish qoralangan Xoja hikoyatlari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini birdek saqlab qolgan.

<sup>2</sup> “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”, 1 t. O‘quvpednashr, Toshkent, 1941.

<sup>3</sup> “O‘zbek adabiyoti”, III tom, O‘zdamnashr, Toshkent, 1959, 236-b



# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi XVI-XIX asr birinchi yarmi. – Toshkent: “Noshir”, 2019.
2. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975.
3. Poshshoxo‘ja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent.1962.
4. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr, 2006.
5. Xojaning “Miftoh ul-adl” asari № 7796 inventar raqamli qo‘lyozmasi.
6. Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida. –Toshkent, 1961.
7. O‘ZFASHI, Qo‘lyozmalar fondi, inv. №4282.
8. “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”, 1 t. O‘quvpednashr, Toshkent, 1941.
9. “O‘zbek adabiyoti”, III tom, O‘zdavnashr, Toshkent, 1959.